
DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-10-65 **Pages: 593-598**

Oriental Journal of History, Politics and Law

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



SOCIAL MECHANISMS FOR FORMING THE CULTURE OF INFORMATION CONSUMPTION IN A DIGITAL SOCIETY

Abror Nazarovich Sanakulov
Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: digital society, globalization, information-psychological security, information attack, manipulation, spiritual immunity, national identity, information culture, social networks, cultivation of thought.

Received: 21.10.26
Accepted: 22.10.26
Published: 23.10.26

Abstract: This article comprehensively analyzes the characteristics of the formation of the modern information society, the impact of information on social-philosophical, spiritual, and psychological security in the context of globalization, as well as the threats posed by information attacks to human spirituality. Furthermore, the priority directions for enhancing the culture of information consumption among the population and youth, forming ideological immunity, and developing psychological defense mechanisms are scientifically substantiated.

RAQAMLASHGAN JAMIYATDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY MEXANIZMLARI

Abror Nazarovich Sanaqulov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti «Gumanitar fanlar» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: raqamlashgan jamiyat, globallashuv, axborot-psixologik xavfsizlik, axborot xuruji, manipulyatsiya, ma'naviy immunitet, milliy o'zlik, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, fikr tarbiyasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy axborot jamiyatining shakllanish xususiyatlari, globallashuv sharoitida axborotning ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy va psixologik xavfsizlikka ta'siri hamda axborot xurujlarining inson ma'naviyatiga solayotgan tahdidlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, aholi va yoshlarda axborotdan

foydalanish madaniyatini yuksaltirish, g‘oyaviy immunitetni shakllantirish hamda psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslangan.

СОЦИАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Аброр Назарович Санакулов
Доцент Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми
Доктор философии по философским наукам (PhD)
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: цифровое общество, глобализация, информационно-психологическая безопасность, информационная атака, манипуляция, духовный иммунитет, национальная идентичность, информационная культура, социальные сети, воспитание мышления.

Аннотация: В данной статье подробно проанализированы особенности формирования современного информационного общества, влияние информации на социально-философскую, духовную и психологическую безопасность в условиях глобализации, а также угрозы информационных атак для духовности человека. Наряду с этим научно обоснованы приоритетные направления повышения культуры потребления информации среди населения и молодежи, формирования идеологического иммунитета и развития механизмов психологической защиты.

Kirish. Bugungi kunda axborot jamiyat rivojlanishining muhim omili sanaladi. Jamiyat axborotsiz yashay olmaydi. Dunyo yagona axborot makoniga aylangan bir pallada undan «xoli» bo‘lish ham mumkin emas.

Ma’lumki, axborot insonning doimiy ehtiyojiga aylangan. Inson har kuni o‘nlab telekanallar, radioeshittirishlar, gazetalar va internet orqali qancha axborotlarga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, yana axborotga ehtiyoj sezadi. Bugun keng jamoatchilikka, ayniqsa, yoshlarga qanday axborotlar zarurligini izohlashga hojat yo‘q. Ular mamlakatimizda va jahonda yuz berayotgan eng muhim voqea-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy axborotga ega bo‘lib borishni istaydilar.

XXI asrga kelib axborot jarayoni yuksak sur’atlar bilan kechmoqda, ijtimoiy hayot faoliyatining barcha sohalari sharoiti va imkoniyatlari axborotdan foydalanish bilan bevosita

bog‘liq bo‘lib qoldi. Axborot jamiyat boyligini yaratuvchi, rivojlanish sur’atini tezlashtiruvchi asosiy omilga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i va boshqa aloqa vositalari butun dunyo mamlakatlarini, mintaqalarini bir butun tizimga aylantirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborot jarayonlarining jamiyat va inson tafakkuriga ta’siri borasida bir qator olimlar va faylasuflar tomonidan turlicha ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Xususan, tashqi axborotga bo‘lgan ehtiyojni asoslab bergan A.M.Ochildiyev shunday ta’kidlaydi: «Biz o‘zimiz yashab turgan mintaqadagi jarayonlarga to‘g‘ri baho berish uchun ham tashqi axborotga, dunyoning boshqa mintaqalaridagi ro‘y berayotgan voqealar tahliliga ehtiyoj sezamiz. Negaki, O‘zbekistonda, Markaziy Osiyo mintaqasidagi jarayonlar ham tashqi dunyoda ro‘y berayotgan jarayonlarning uzviy qismidir» [1, 121–122-b.].

O‘z navbatida, axborot-psixologik xavfsizlik fenomenini tadqiq etgan R.Samarov bu tushunchaga: «Axborot-psixologik xavfsizlik – individual, guruhiy psixologik va omma psixologiyasini jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ekologik va boshqa sohalariga qaratilgan turli darajalardagi salbiy ta’sir o‘tkazishlardan himoyalanganlik holati tushuniladi» [2, 113-b.], – deya bevosita ta’rif beradi.

Mazkur muammoning tarixiy-falsafiy ildizlariga nazar tashlansa, XX asr nemis faylasufi Osvald Shpengler o‘zining «G‘arbning halokati» asarida axborot orqali odamlar ongini boshqarish xususida: «Yaqin kelajakda jahonning ikki yoki uchta gazetasi provinsial gazetalar fikrini boshqaradi va ular yordamida xalqlar irodasini bo‘ysundirishga urinadi» [3, 165-b.], – deya e’tiborga molik bashoratni ilgari surgan edi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy izlanishning metodologik asosini tizimli tahlil va yondashuv, qiyosiy-falsafiy hamda qiyosiy-tahliliy yondashuvlar, deduksiya, induksiya, mantiqiy umumlashtirish, shuningdek, kibernetik va sinergetik metodlar tashkil etadi. Raqamlashgan jamiyat, globallashuv va postindustrial taraqqiyot sharoitida kompyuter texnologiyalari va axborot oqimlarining ijtimoiy, ma’naviy hamda psixologik xavfsizlikka, ta’lim tizimi va shaxs taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta’siri sabab-oqibat aloqadorligi asosida o‘rganildi.

Shuningdek, izlanishda ong manipulyatsiyasi, mafkuraviy tahdidlar dialektikasi, iste’mol madaniyatining transformatsiyasi va uning shaxs qadriyatli yo‘nalishlariga ta’siri ochib berildi. Axborot iste’moli madaniyatini yuksaltirish, axborot savodxonligi va kompetentligini shakllantirish, psixologik himoya hamda mafkuraviy barqarorlik mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlarini tadqiq etishda kompleks, fanlararo hamda institutsional yondashuv tamoyillariga tayanildi.

Bunda nazariy umumlashmalar jahon tajribasi, ilmiy-pedagogik va falsafiy adabiyotlar, milliy qonunchilik, amaliy kuzatuvlar hamda ijtimoiy amaliyotdagi tendensiyalarni qiyosiy baholash va umumlashtirish orqali boyitildi.

Muhokama va natijalar. Axborot tig‘izlashuvi jamiyat rivojida ziddiyatli xususiyat kasb etib, ijodiy jihatlari bilan bir qatorda taraqqiyotga tahdid soluvchi tomonlarini ham namoyon etmoqda. Xususan, jadal o‘zgarishlar sur’ati an’ana va novatsiya o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirmoqda. Ayni vaqtda ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan axborot xurujlari kuchayib, ong manipulyatsiyasi jarayonlari keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, bugungi kunda sodir bo‘layotgan turli urushlar, buzg‘unchilik va terrorchilik harakatlarida axborot xuruji asosiy qurolga aylanib bormoqda.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatish jarayoni global tus olgan bo‘lib, bunda chet el davlatlari va xalqaro kuchlar asosiy subyektlar sifatida maydonga chiqmoqda. Axborot makonidagi globallashuv jarayonida turli xorijiy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va mustaqil guruhlar boshqa mamlakatlar auditoriyasining e’tiborini qozonish hamda o‘z qarashlarini singdirish orqali keng jamoatchilik fikriga faol ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu tashqi ta’sir vositalari zamonaviy gibrid urushlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, davlatlarning axborot xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Bunda asosiy ta’sir vositalari sifatida OAV (televideniye, radio, internet), adabiyot, san’at, ta’lim-tarbiya tizimi va shaxsiy muloqotlardan foydalanilmoqda. Axborot-psixologik ta’sirning bosh obyekti inson psixikasi bo‘lgani bois, aholi, xususan, yoshlarning psixologik tayyorgarligini oshirishga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Shu sababli, insonning axborot sohasidagi xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya’ni axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, axborotni himoyalash – bu axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish hamda ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan kompleks tadbirlar majmuidir.

Globallashuv jarayonida sivilizatsiyalararo muloqot o‘sib borayotgan bir sharoitda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda zamonaviylik bilan tarixiylikning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash, ya’ni texnika, texnologiya, axborot kommunikatsiyalari yutuqlari asosida yoshlar tafakkurini boyitishda ajdodlar ma’naviy merosi ne’matlaridan o‘zaro aloqadorlikda foydalanish ko‘nikmalarini ularda hosil qilish zarur. Taassufki, globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda ayrim yoshlar o‘rtasida milliy ma’naviyatimizning yuksak axloqiy tamoyillariga befarqlik holatlari kuzatilmoqda. Milliy qadriyatlardan ko‘ra G‘arb yoki boshqa

xorijiy madaniy oqimlarning tashqi ko‘rinishlariga taqlid qilish moyilligi kuchayib, bu ularning kiyinishi, kundalik fe’l-atvori va yurish-turishida yaqqol ko‘zga tashlanib qolmoqda. Bu esa yoshlar tarbiyasida milliy o‘zlikni anglash va mafkuraviy immunitetni yanada kuchaytirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish taqozo etishini ko‘rsatadi.

O‘zgarishlarga qanchalik qarshilik ko‘rsatilmasin, ular baribir hayotimizga kirib kelaveradi. Ayniqsa, globallashuv jarayonidan o‘zining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanuvchi kuchlar bor ekan, bu o‘zgarishlardagi salbiy jihatlar ham kuchayib boradi. Binobarin, globallashuv jarayonining asosiy subyekti va harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlariga xizmat qiladigan bunday sa’y-harakatlardan ko‘zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan an’anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g‘arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy jihatdan yagona tamaddun hukmronligini o‘rnatishdan iborat. Bunday sa’y-harakatlarning xatarli jihati shundaki, ularning boshqa tamaddunlar, xalqlar va davlatlar uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi, masalan, yaqindagina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning milliy manfaatlari, an’ana va qadriyatlariga qay tarzda ta’sir etishi mumkinligi global hukmronlikka intilayotgan kuchlarni u qadar tashvishlantirmaydi [4, 16-b.].

Tadqiqot natijasida axborot xurujlaridan himoyalanish va sog‘lom axborot muhitini yaratish bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlar aniqlandi. Eng avvalo, fikr tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish va yosh avlodni kichik yoshdan – bog‘cha va maktab davridan boshlab mustaqil hamda tanqidiy fikrlashga o‘rgatish lozimligi namoyon bo‘lmoqda. Zero, Mirzo Bedil ta’kidlaganidek, «Agar me’mor dastlabki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo‘lib qolaveradi».

Mirzo Bedilning mazkur hikmatli so‘zi ta’lim-tarbiya jarayonining poydevori naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Bolalarda yoshlikdan boshlab tanqidiy fikrlashni shakllantirish keyinchalik ularni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalardan himoya qiluvchi mustahkam ma’naviy qalqon vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga, faqatgina tarbiyaning o‘zi bilan cheklanib qolmasdan, internet makonini milliy qadriyat va an’analarimizni aks ettiruvchi sifatli, mazmunan boy hamda jozibador veb-resurslar bilan muntazam to‘ldirib borish talab etiladi. Bu jarayonda oqilona cheklov va nazorat mexanizmlarini qo‘llash, xususan, ta’lim muassasalarida internet tarmog‘idan foydalanishda odob-axloq hamda milliy ma’naviyatga zid bo‘lgan manbalarga nisbatan cheklovlar joriy etish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, sog‘lom axborot muhitini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida milliy qonunchilikni takomillashtirish – voyaga yetmagan yoshlarga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarga ma’naviy tahdidlar va axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan tegishli qo‘shimchalar kiritish zarur.

Xulosa. Bugungi murakkab davrda buzg‘unchi g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sirlarga qarshi fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Axborot-psixologik xurujlar va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mantiqiy dalillar va tanqidiy fikrlash madaniyatini qaror toptirish zarur. Buning uchun yoshlarda raqamli savodxonlikni oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularda har qanday yot g‘oyalarga qarshi barqaror ma’naviy immunitetni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifalarni amaliyotga samarali tatbiq etish yuzasidan bir qator ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi. Eng avvalo, ta’lim tizimini raqamli xavfsizlikka moslashtirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim va oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga «Axborot gigiyenasi» modulini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, internet makoni va ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etuvchi, yoshlarning yosh xususiyatlariga mos sifatli mediamahsulotlar (videoroliklar, longridlar, raqamli loyihalar) yaratishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish talab etiladi. Bu borada oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirib, yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan seminar-treninglar hamda targ‘ibot tadbirlarini tizimli ravishda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, soha mutaxassislaridan iborat jamoatchilik ekspertlar klubini tuzib, yangi axborot xurujlarini tezkor aniqlash hamda ularga qarshi ilmiy asoslangan ma’rifiy-targ‘ibot materiallarini tayyorlash tizimini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochildiyev A.M. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. – T.: O‘zbekiston, 2004. – 121–122-b.

2. Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari. – T.: Akademiya, 2010. – 213 b.

3. Шпенглер О. Закат Европы. – М.: Искусство, 1993. – 298 с.

4. Umarov B. G‘arb tamadduni: inqiroz alomatlari // «Tafakkur» jurnali. – 2007. – № 2. – 16-b.